

**DEFEKTOLOGIYANING RIVOJLANISHIGA HISSA QO'SHGAN
OLIMLAR HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHА**

Qo'chqorova Gulnoza

*Axborot texnologiyalari va menejment unversiteti Maxsus pedagogika
Defektalogiya yo'nalishi fakulteti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada defektalogiya yo'nalishi qachon kelib chiqqanni va qaysi olima ayollar asarlar yozgani haqida ma'lumot berildi.

Kalit so'zları: Defektalogiya, Surdopedagogika, logopediya, dotsent, pedagogika, psixologiya, lorpatalogiya, S. Sh. Aytmetova, va boshqalar

Mamlakatda avj olib ketgan yuqumli kasalliklar , ochlik, tozallikka riosa qilmaslik, Har xil shikastlanishlar va boshqa bir qancha sabablar keltirib chiqqan bolalardagi nuqsonlik yuqori darajada edi. 1929-yilda O'zbekiston Respublikasi markaziy ijroiya qo'mitasi raisi Yo'ldosh Oxunboboyev tashabbusi bilan nuqsonli bolalar uchun Toshkentda alohida maktab childi. Maxsus maktablar uchun oliy ma'lumotli defektologlar tayyorlash ishi Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib 1967-yilda boshlangan edi.

Toshkentdagagi Nizomiy nomli pedagogika institutining pedagogika va psixologiya fakulteti qoshida ,hozir esa boshlang'ich ta'lim va Defektalogiya fakulteti sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda . Defektalogiya fakulteti tarixga nazar solsak dastlab 4 yillik kunduzgi bo'lim tashkil etilib ,1968-1969 o'quv yilidan kechki bo'lim ham faoliyat ko'rsata boshladi. 1973-yildan boshlab esa Kar va zaif eshtuvchilar maktablari uchun surdopedagoglar tayyorlash boshlandi. O'zbekiston Respublikasining defektalogiya sohasidagi birinchi olimasi pedagogika fanlari nomzodi, dotsent S. Sh. Aytmetovadir. Aytmetova defektalogiya fakultetining mustaqil fakultet sifatida tashkil etilishida va dastlabki defektolog mutaxassislarni yetishtirib berishda katta xizmat qildi. 1984-yildan defektalogiya fakulteti mustaqil faoliyat ko'rsata boshladi. Fakultetini S. Sh. Aytmetova bir yil boshqargan .1986-yilidan fakultetini pedagogika fanlari doktori professor L. R. Mo'minova boshqara boshladi. 1988-yil mustaqil defektalogiya fakultetining sirtqi bo'limi tashkil etilib ,Unga V. S. Rahmonova boshchilik qilgan. L. R . Mo'minova defektalogiya fakultetini boshqargan. 1986-1999 yillar ilmiy sohada eng jadal suratlarda rivojlangan davr bo'ldi. L. R. Mo'minova defektalogiya fakultetini boshqarish davrida ikki kafedraning ilmiy salohiyatini oshirishga ulkan hissa qo'shdi. Shu davrda L. R. Mo'minova yetuk mutaxassislarni yetishtirib chiqishda o'ziga xos maktab yaratdi. M. Yu. Ayupova, P. M. Po'latova , H. M. Po'latova, U. Yu. Fayziyeva, N. X. Dadaxo'jayeva , D.

“TOP IZLANUVCHI - 2025” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

M. Nurkeldiyeva, M. P. Hamidova, Sh. Amirsaidova , Z. Ahmedova, L. Nurmuhamedova , F. A. Mirboboyeva, Ya. Chicherina va boshqalar. L. R. Mo'minova defektalogiya faniga oid 100 ga yaqin ilmiy maqolalar , o'quv metodik qo'llanmalar ,metodik tavsiyalar va darsliklar yaratgan. Yana bir olimamiz K. Mamedov ham defektalogiya fakultetining ravnaq topishida o'z hissalarini qo'shganlardan hisoblanadi. K. Mamedov yordamchi maktab o'quvchilari psixologiyasini o'qitish uslubiyatini o'zbek tilida ishlab chiqdi va oligofrenopsixologiya fanidan bir qator o'quv qo'llanmalari yozdi. "Aqli zaif o'quvchilar psixologiyasi ", "Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar psixologiyasi " , " A. Soatov, P. M. Po'latova bilan hammualliflikda " Oligofrenopedagogika asoslari ", o'quv metodik qo'llanmalarni yaratdi. Surdopedagogika va klinik asoslari kafedrasini tibbiyot fanlari doktori M. G. Mirzakarimova boshqardi . M. G. Mirzakarimova eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar (lorpatalogiya),aqli zaif bolalar klinikasi va boshqa tibbiyotga oid fanlarni tayyorlashga o'zbek tilida talabalarga yetkazishda va respublikamizda defektolog kadrlarni tayyorlashda o'z hissalarini qo'shgan zahmatkash olma ayollardan biridir. Ulardan so'ng R. M. Qoriyeva boshqargan bu kafedrada ham I. A. Alimova, N. Sh. Bekmurovdov, X. M. Gaynudinov va boshqalar surdopedagogika fanining rivojlanganlanishida dastlabki qadamlarni qo'yishgan . Oligofrenopedagkgika va logopediya kafedrasini pedagogika fanlari nomzodi dotsent A. I. Soatov boshqaradi. A. I. Soatov birinchi marta o'zbek tilida " Yordamchi maktab o'quvchilariga matematika o'qitish metodikasi " o'quv qo'llanmasini yaratgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 11-noyabrdagi 433-son qarori bilan nogironlar ijtimoiy tiklanishning 1996-2000 yilgacha mo'ljallangan Davlat dasturi qabul qilindi. Ayni shu vaqtida maqsad bilan "Sog'lom avlod ","Ulug'bek " , "Bolalik" , "Ekosan" van shu kabi jamg'armalar tashkil etildi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A, "Barkamol avlod orzusi" T. "Sharq" . 1999y.
2. Mamedov K. Q, Soatov M. I, Po'latova P. M
3. Mo'minova I. R. Oilada nogiron va yordamga muhtoj bolalar haqida. Toshkent. 1990 yil
4. Rahmonova V. S. Defektalogiya va logopediya asoslari. T. O'q. 1991yil.